



YOZMA ADABIYOTDA NAVRO‘Z TARANNUMI

Fozilova O‘g‘iloy Fayoz qizi

BuxDU 2-bosqich tayanch doktoranti, 26-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi

Navro‘z nafaqat tabiatning yangilanishi, o‘zgarishi va yasharishi, balki inson qalbi, ruhiyati va tafakkurining ham o‘zgarish davridir. Bahorning iliq tafti qalblarga o‘zgacha ruh bag‘ishlaydi. Inson ko‘nglida ishonch, ko‘tarinkilik, jo‘shqinlik, sevgi-muhabbat tuyg‘ulari ortadi. Shuning uchun mumtoz g‘azalchilikda uning tarannumiga alohida e’tibor qaratilgan. Tinchlik, omonlik, totuvlik, do‘stlik, mehr-u muhabbat, obodlik va bunyodkorlik, yasharish va yangilanish timsoli bo‘lib kelgan Navro‘z barcha davrlarda ezgu ishlarga undash vositasi sifatida qadr topdi. Ana shu sabab barcha davr ma’rifatparlari uni nishonlashga, undan bahra olib yashashga, uning an’analarini davom ettirishga barchani da’vat etib kelishdi. Jumladan, Narshaxiy, Beruniy, Umar Xayyom, Mahmud Qoshg‘ariy, Alisher Navoiy, Hafiz Tanish Buxoriy kabi allomalarning asarlarida, boshqa turli tarixiy, adabiy va boshqa manbalarda Navro‘z bayramining o‘tish tartibi, u bilan bog‘liq urf-odat hamda xalq o‘yinlari haqida ko‘plab ma’lumotlar keltirilgan. Ulug‘ bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy o‘zining «Qadim xalqlardan qolgan yodgorliklar» deb nomlangan asarida ham bu bayram xususida qiziqarli ma’lumotlarni yozgan. Jumladan, quyosh yili hisobida yilning birinchi oyi deb sanalgan Farvardin oyining birinchi kuni Navro‘z ekanligini ko‘rsatgan. Bu kuni esa yerning Shimoliy yarim sharida bahorgi kunduz bilan kecha teng keladigan kun 21-martga to‘g‘ri keladi.

Firdavsiyning «Shohnoma» asarida yangi yil bayrami shoh Jamshid nomi bilan bog‘lanadi. Jumladan, Jamshid yurtga yaxshilik qilish maqsadida odamlarga kasb o‘rgatadi, temir eritib qurol yasatadi, ip yigirtirib kiyim to‘qitadi, imoratlar barpo qiladi, tabiblik sirlarini ochadi, kema yasaydi, bog‘ bunyod qiladi. Davlat tuzib, odamlarni tabaqalarga ajratadi, kiyim kiyishga o‘rgatadi. Nihoyat, «ishlari gurkirab berganda meva» bir kuni taxt yasatib, unda osmonga ko‘tariladi. Ushbu afsonaga ko‘ra xuddi shu kuni Navro‘z nishonlangan. Umuman aytganda, Jamshid majusiylar dinini (otashparastlikni) yangilaydi. Bu ish qilingan kun esa “Navro‘z” – yangi kun nomini oladi.

Beruniy keltirgan afsonada: «Jamshid o‘ziga arava yasab olgach, o‘sha kuni aravaga chiqib oldi, jinlar va shaytonlar uni havoga ko‘tarib, bir kunda Dunbovandan (Damovand tog‘i) Bobilga olib bordilar. Odamlar bu ajoyib voqeani ko‘rgach, o‘sha kunni hayit qildilar va Jamshidning (aravada uchishiga) taqlid qilib arg‘umchoqlarda uhdilar». Bu rivoyat mashhur shoir Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” dostonida ham nazm qilingan. Shoir eroniy shohlardan bo‘lgan Jamshid saltanatining ravnaqini ta’riflar ekan, yozadi:

Ishlari gurillab berganda meva,

Yana ulug‘likni ayladi sheva.

Bitta taxt qurdirdi bari siymu zar,

Shukuhi Kayoniy, bezagi gavhar.

“Dev ko‘tarib uchsini” deb bo‘ldi farmon,

Taxt ko‘tarilganda past bo‘ldi osmon.



*Taxt ko'kda charx urar misoli quyosh,
Farmondor o'tirar unda irg'ab bosh.
Barcha jam, odamlar qarar taxtiga,
Jahon qoyil bo'lib shukuh baxtiga.
Jamshidga sochishar oltinu gavhar,
Shu kunni yangi yil – bayram deyishar.
Yil boshi Hurmuzu edi farvardin
Dilda na g'am qoldi, na adovat kin.*

Abu Bakr Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida Navro‘z bayrami o‘lkamizda necha ming yil davomida uzluksiz nishonlanib kelayotganligini tasdiqlaydigan muhim dalillar keltirilgan: «Varashxa – katta qishloqlar jumlasidan bo‘lib, Buxoro shahridan qadimiyroqdir. Bu qishloqda har o‘n besh kunda bir kun bozor bo‘ladi, yilning oxirida esa yigirma kun bozor qilib, yigirma birinchi kuni Navro‘z – yangi yil bayramini o‘tkazadilar. Buni «navro‘zi kishovarzon» – «dehqonlar navro‘zi» deyдилar. Buxoro dehqonlari yil hisobini o‘sha kundan boshlaydilar va bunga e‘tibor beradilar». «Buxoro tarixi»da Navro‘z bayramining yoshi to‘rt ming yildan ortiqroq ekanligini isbotlaydigan g‘oyat muhim dalil ham bor. Narshaxiy buxoroliklarning ko‘hna udumlaridan biri xususida hikoya qilar ekan, bu gaplar bo‘lib o‘tganiga hozir uch ming yildan ortiqroq vaqt o‘tdi, deb yozadi. Agar xassos muarrix “hozir” deganida o‘zi yashagan X asrni nazarda tutganligini, o‘sha zamondayoq Navro‘zi olam “uch ming yildan ortiqroq” yoshga kirib qolganligini e‘tiborga olsak, ming yillar osha xalqimiz ma‘naviy dunyosini boyitishga xizmat qilib kelgan bu fusunkor shodiyona o‘lkamizda qadimdan keng nishonlangani ayon bo‘ladi.

Alisher Navoiyning 1486-yilda yozilgan «Tarixi muluki ajam» (“Ajam shohlari tarixi”) asarida Jamshidning buyuk kashfiyotlari so‘ngida ulug‘ Navro‘z ixtiro qilinganligini bayon qiladi. Navoiy yozishicha: «Jamshid «Chihil minor» nomli odamzod ko‘rmagan va aql bovar qilmaydigan baland bino qurib... «bu imorat tugandi, olam salomin va ashrov va ahbarin yig‘ib, anda azim jashn qildi. Ul vaqtkim, quyosh nuqta e‘tiqodli rabiyya taqvil qilib erdi ul binoda taxt ustiga o‘ltirib, adolat sayt va sadosin olamga muntashir qildi va ul kunining otin navro‘z qo‘ydi». Ko‘rinadiki, Alisher Navoiy Navro‘zni, birinchidan, kecha va kunduzning bahorga teng kelish kuni («e‘tiqodli rabiiy») deb ilmiy asoslangan haqiqatni ta‘kidlamogda, ikinchidan, Navro‘zni bayram sifatida tantanavor nishonlash odatining qadim-qadimdan, yarim afsonaviy shoh Jamshid zamonidan boshlanganini qayd etmoqda. Muhimi shundaki, Navoiy Navro‘zdagi to‘y-tomosh, shodlik-xursandlikni odil hukmdor Jamshidning «adolat savtu sadosi olamga muntashir qilgan»ligi bilan uzviy bog‘liq holda ko‘radi. Uning bu ilmiy-tarixiy asaridagi Navro‘zga oid qayd-ta‘kidlari adabiy faoliyatida ham o‘zining badiiy ifodasini topganligi haqida keyingi bobda alohida to‘xtalamiz.

Yozma adabiyotda maxsus “Navro‘znoma” nomli kitoblar yaratilgan. Shunday kitoblardan biri Umar Xayyomning “Navro‘znoma”sidir. Unda Navro‘z bayramining kelib chiqishi, ajdodlarimizning unga bog‘liq urf-odatları haqida hikoya qilinadi. Umar Xayyom “Navro‘znoma” asari muqaddimasida bir yaqin do‘sti Navro‘z bayrami tarixini, uni qaysi podshoh joriy etganligini tushuntirib berishni iltimos qilganligi munosabati bilan yozganini



aytadi. Umar Xayyomning "Navro'znoma" risolasi uning tarixni, etnografiyani, xalq urf-odatlarini juda mukammal bilganligidan dalolat beradi. Mutafakkiriing bu asari Malikshoh va Nizom-ul-mulk vafotidan keyin yaratilgan. Umar Xayyom "Navro'znoma" asarida Quyosh taqvimining tarixini bayon qiladi. Shu taqvim bo'yicha Eron podshohlarining Navro'z kunini qanday belgilaganliklari va bayramni qay tarzda o'tkazganliklarini tarixiy dalillar bilan ma'lum qiladi. Risolada Navro'z bayrami bilan bog'liq bo'lgan juda ko'p odatlar, hodisalar, afsonalar keltirilganki, ular orqali hozirgi zamonda o'tayotgan Navro'z bayrami bilan Umar Xayyom tasvir qilayotgan davrdagi Navro'z bayrami orasida katta farqlar mavjudligini bilib olish mumkin.

Umar Xayyom bu risolada nafaqat etnograf, tarixchi, balki bilimdon tabib sifatida ham ko'rinadi. U inson organizmining fasldan faslga o'tganda o'zgarishini hisobga olib, eng kerakli tibbiy maslahatlarni beradi. Masalan, kitobda arpaning ming dardga davo ekanligini bildiruvchi bir necha hikoyalar keltirilgan. Yoki may – uzumdan tayyorlangan ichimlikning foyda va zararlari, uni iste'mol qilishda nimalarga rioya qilish kerakligi haqida ma'lumot ham berilgan. Bundan anglashiladiki, Umar Xayyomning "Navro'znoma" asari nafaqat tarixning obidasi, balki juda ko'p foydali maslahatlarni ilgari surgan ma'naviy tarbiya vositasi hamdir. Umar Xayyom ham «Navro'znoma» asarida Navro'z nishonlanishi haqidagi rivoyatlarini podshoh Jamshid davriga taqaydi. «Jamshid shu kunni (Farvardin oyining boshi) Navro'z atalsin, deb farmon berdi va odamlarga har yili Farvardin oyi kirishini bayram qilishni, uni yangi yil deb hisoblashni buyurdi», – deb yozadi Umar Xayyom.

Xullas, rivoyatlardan ikki xil xulosa kelib chiqadi: birinchisi: Navro'z bilan bog'liq rivoyatlarning ko'pi podshoh Jamshidga mansub voqealardan iborat; ikkinchisi bu rivoyatlarda Navro'zni belgilashda tabiat qonuniyatlariga amal qilingani ma'lum bo'ladi. Navro'z haqida turli ma'lumotlar Mahmud Qoshg'ariyning (XI asr) «Devoni lug'otit turk» asarida ham bayon etiladi. Bulardan tashqari qator yozma manbalarda ham Navro'zning qadimiyligiga ishora etuvchi talay rivoyatlar mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар / Танланган асарлар. Т.1. – Т.: Фан, 1968. – 468 б.
2. Умар Хайём. Наврўзнома. – Т.: «Меҳнат, 1990.
3. Фирдавсий А. Шоҳнома. 1-китоб. – Т., 1975. – Б.71.